


ICHKI ISHLAR ORGANLARI NAVBATCHILIK QISMLARINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH



Xamidov Diyorjon o'rol o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
kunduzgi ta'lif Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati fakul'yetti
ixtisosligi bo'yicha ta'lif olayotgan
3-o'quv kursi 322-o'quv guruhi kursanti

Mustofaqllov Bobur Asror o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasi
faoliyati kafedrasi o'qituvchisi, kapitan

Annotation: Ushbu maqolada Ichki ishlar organlarida navbatchilik qismi xodimlari faoliyatida olib borilayotgan islohotlar, faoliyatida uchrayotgan nazariy va amaliy muommolar, kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish borasida olib borilayotgan siyosat masalasi, muommolarni bartaraf etish usullari hamda amaliy tajriba yordamida sohaga oid shaxsiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: navbatchilik, kirish-chiqish, maxsus vositalar, ta'sir doira, normalar, vijdonan yondashuv, xizmat vakolat, voqeа-hodisa, rasmiylashtirish, jinoyat ochilishi

ОРГАНИЗАЦИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ II ДЕЖУРНОЙ ЧАСТ

Аннотация: В данной статье рассматриваются принципиальные реформы в деятельности сотрудников органов внутренних дел, теоретические и практические проблемы, встречающиеся в их работе, недостатки и политические вопросы их устранения, методы решения проблем, а также личные взгляды на ситуацию с помощь практического опыта.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: обязанность, вход-выход, специальные средства, сфера влияния, нормы, добросовестный подход, орган службы, происшествие, формализация, раскрытие преступления

ORGANIZING AND IMPROVING THE ACTIVITY OF THE ПО DUTY PART

Annotation: In this article, there are fundamental reforms in the activities of the staff of the internal affairs bodies, theoretical and practical problems encountered in their work, shortcomings and policy issues for their elimination, methods of solving the problems, and personal views on the field with the help of practical experience.

Key words: duty, entry-exit, special tools, sphere of influence, norms, conscientious approach, service authority, incident, formalization, crime detection

O'zbekiston Respublikasi IIV navbatchilik qismi xodimlari shaxsiy tarkibdan belgilangan kundalik tartibga qat'iy amal qilishni ta'minlab kelmoqdalar.

Barcha sohaviy yo'nalishlari bo'yicha tarkibiy xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yib, xavfsizlik, kirish-chiqish tartibi hamda shaxsiy tarkibni maxsus rejalar asosida jangovar shayligini ta'minlash, navbatchilik qismining faoliyatini takomillashtirish borasida xizmat olib bormoqdalar. Navbatchilar institutni qo'riqlashga jalb qilingan xodimlarning xizmat faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, tashvishgoh va qo'ng'iroqlarning, qo'riqlash va video-kuzatuv texnikalarining, aloqa vositalarining ishchi holatini tekshirib bormoqda.

Navbatchilik qismiga kelib tushgan barcha xizmatga oid xabar va ma'lumotlar ro'yxatga olinib ijroga qaratilmoqda. Darhaqiqat, navbatchilik qismlari ichki ishlar organlari ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish va fuqarolarning murojaatlari yuzasidan o'z vaqtida qonuniy qarorlar qabul qilinishini ta'minlashda asosiy o'rinn tutadi. Navbatchilik qismi xodimi faoliyatiga IIB navbatchilik qismi xodimlari hodisa, huquqbazarliklar va jinoyatchilik yuzasidan xabarlar, shuningdek fuqarolarning ariza hamda murojaatlarini qabul qilib olisharkan, darhol ularning ijrosiga kirishadi.

IV Navbatchilik qismi Tergov-tezkor guruhining voqeа joyiga to‘liq epikirovka va aloqa vositalari bilan chiqishini ta’minlaydi hamda ular bilan doimiy aloqada bo‘lib turadi. Sohaning eng qaynoq nuqtasi bo‘lgan navbatchilik qismida faoliyat yuritishning o‘ziga yarasha qiyinchiligi va murakkab tomonlari bor. Ushbu vazifani sidqidildan bajarishga harakat qilayotgan xodimlarning ham boshqa yo‘nalishdagi hamkasblari kabi, har bir daqiqasi fuqarolar xavfsizligi va tinchligi uchun qaratilganligi bilan e’tiborga molik. Navbatchilik qismlariga jinoyat va hodisalar sodir bo‘lgan joylarga xodimlar zudlik bilan yetib borishi uchun 330 xizmat avtomashinasini ajratilgan. “Xavfsiz shahar” konsepsiysi doirasida insonning tashqi qiyofasini tezkorlik bilan aniqlovchi va boshqa innovatsion videokuzatuв kameralarini o‘rnatish choralar ko‘rilmoxda. Jumladan, “Yo‘l harakati qoidalari buzilishini qayd qilish bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizim” loyihasi asosida shaharlar markaziy chorrahalarini, gavjum jamoat joylarida videokuzatuв moslamalari o‘rnatilgan.

Aytish joiz, ichki ishlar organlarida navbatchilik qismlari muhim o’rin tutadi. Boisi navbatchilik qismlari jinoyat va hodisalar haqidagi xabar asosida tergov tezkor guruhining voqeа joyiga zudlikda yetib borishi va jinoyatlarni issiq izidan fosh qilish yoki sodir etilishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklarning oldini olishda muhim o’rin tutadi. Ichki ishlar organlarining malakasini oshirish IV Navbatchilik qismlari tezkor navbatchilarini hamda yordamchilarining bilim va ko’nikmalari, sohaga oid hujjatlar, yangilik va o’zgarishlardan xabardorlik darajasini oshirish, xizmat vazifalarini bajarish chog’ida to’g’ri harakatiga oid bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Shu ma’noda xodimlarga Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi hamda “Ichki ishlar vazirligi tizimida navbatchilikni o’tash tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi buyruqlarining mazmun-mohiyati tushuntirilmoqda. Shuningdek, ichki ishlar organlarida jinoyat va hodisalarga oid arizalar, xabarlar hamda boshqa ma’lumotlarni qabul qilish, ro’yhatga olish, ko’rib chiqish va hisobini yuritish tartibi, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash talablari ham yetkazilmoqda. Shu o’rinda xodimlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar, navbatchilik

qismlarida maxsus vositalarni saqlash, xodimlarga xizmatda foydalanish uchun tarqatish va qabul qilish tartiblari hamda bu yo'nalishdagi me'yoriy hujjatlar mazmun-mohiyati, jinoyat va hodisalar haqidagi xabarlarni qabul qilish va ro'yhatga olishda 102 avtomatlashтирilган ма'lumotlar tizimida ishlash, boshqarma navbatchilik qismiga uzatish tartiblari bo'yicha ham bilimlari oshirilmoqda. Bundan tashqari, quollar, ularning turlari, foydalanimishi va xavfsizlik qoidalariga rioya etish tartiblari va xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay IIV Navbatchilik qismi xodimlari tomonidan ish faoliyatlarida va fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish jarayonida kamchiliklar kuzatilmoqda. Shu asnoda xulosa qilib aytganda navbatchilik qismlari ichki ishlar organlarida ish faoliyatini to'g'ri tashkil etish va fuqarolarning murojaatlari yuzasidan o'z vaqtida qonuniy qarorlar qabul qilinishini ta'minlashda asosiy o'rinn tutadi. Shu sababli, ichki ishlar organlaridagi navbatchilik qismlari hamda axborot-tahlil va tashkiliy-inspektorlik xizmati xodimlarining kasb mahoratlarini muttasil ravishda oshirib borish maqsadida seminar-treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanimishi adabiyotlar

1. T.B.Mamatqulov, A.B.Babamurodov, F.E.To'rayev va boshq. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi: Ma'ruzalar kursi – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
- 2.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagи PF-5953-son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmon
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2020 yil 26 martgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2020.
4. <http://utube.uz/>(Ta'lim videoportali)
5. <http://my.gov.uz/>(Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı)

6. <http://ziyonet.uz/>(Ta'lim portali)
7. <http://lex.uz>(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi) 8.
<http://wikipedia.org>(Ochiq ensiklopediyasi)